

## INTERNET TARMOQLARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI YOXUD YOSHLAR INTERNETGA MUKKASIDAN KETYAPTIMI?

**Yangiboyeva Yangiljon**

*Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 27-AFCHO'SM maktabi o'quvchisi*

*+998914230725*

*yangiboyevayangiljon@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada internet tarmoqlari haqida ma'lumot berilgan hamda ijtimoiy tarmoqlar va yoshlар o'rta sidagi dolzarb muammolar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o'llim*

Dastlab, internet atamasi haqida to'xtalsak. Xo'sh, o'zi internet nima? Internet-dunyo bo'y lab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmuidir.

Shu o'rinda internet tarixiga nazar tashlasak. Internet tarixi 1950-yilda kompyuterlarning rivojlanishi va deyarli bir vaqtning o'zida turli mamlakatlarda, birinchi navbatda, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiyadagi ilmiy va harbiy laboratoriyalarda global kompyuter tarmoqlarining ilmiy va amaliy konseptsiyalarining paydo bo'lishi bilan boshlangan.

Internet haqida so'z borar ekan, uni yoshlар hayotidagi o'rni haqida ham aytib o'tishimiz joiz. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni ikkiga ajratamiz: foydali va samarasiz. Keling, oldin noo'rin foydalanish haqida to'xtalsak. Internet tarmoqlaridan noto'g'ri foydalanish butun hayotimizga nuqta qo'yishi mumkin. Misol tariqasida, turli terroristik saytlar, "Ko'k kit" o'yini, online qimor kabilarni aytishimiz mumkin. Shu singari bo'limg'ur narsalar uchun vaqtimizni sarflar ekanmiz, kelajagimiz qanday bo'lishi barchaga ma'lum. Ya'ni bunday foydalanishning oxiri ko'p hollarda "o'llim" bilan yakun topadi. Darhaqiqat, internetdan uzoq vaqt foydalanish inson sog'lig'i uchun zarar

Shu bilan birga shifokorlar ogohlantirmoqdalar, chunki, internet turli kasalliklarning rivojlanishiga yordam beradi. Ko'rish muammolari, umurtqa pog'onasi muammolari va yomon holatlar ham internetdan faol foydalanuvchilar soni tobora ko'payishi bilan ortib bormoqda.

Internetning eng katta muammosi – bu bolalarga o'zlarining ruhiyatini to'liq rivojlanmaganligi sababli, u giyohvandlikka sabab bo'ladi. Bu ham aynan internetdan noo'rin foydalanish zarari.

Darhaqiqat, internetdan unumli foydalanish haqida to'xtalsak. Hayotning barcha sohalarida internet yordamida osonlik, arzonlik va tezlik foydalari ko'zlanadigan bo'ldi.

Tassavur qilish uchun birgina misol keltirishning o'zi kifoya qiladi, deb o'ylayman. Havo yo'li bilan safarga chiqmoqchi bo'lgan inson oddiygina chipta olish uchun

chiptaxonaga borishi, navbatda turib, chipta olishi, agar chipta u istagan kunga topilmasa, ortiga qaytib ketishiga to'g'ri keladi. Xuddi shu ish internet orqali amalga oshirilsa, juda ko'p foyda ko'rildi, ya'ni uyda o'tirib, chipta sotib olinadi. Vaqt kelganda, aeroportda uchishdan oldin avtomatdan elektron chiptasini oladi. Bu ish avvalgisiga solishtirib ko'rilsa, vaziyat ayon bo'ladi. Chiptaxonaga borib, ovora bo'linmaydi. Navbatga turilmaydi. Ustigauustak, arzonga tushadi. Chunki chiptaxona binosi, chiptachi, binoni isitish, sovutish, yoritish uchun ketadigan, yo'lkira va shunga o'xhash xarajatlar tejab qolinadi.

Bunga o'xhash foydalar juda ko'p bo'lib, biz keltirganimiz oddiy bir misol edi. Shuning uchun hozirda hamma xalqlar internetni rivojlantirish borasida qo'lidan kelgan barcha choralar ni ko'rmoqda. Bu ishga to'g'anoq bo'luvchi omillardan xalos bo'lish yo'llarini axtarmoqda. Internetdan foydalanuvchilar kun sayin ko'payib bormoqda. Hamma ushbu osonlik va qulaylikdan bahramand bo'lishga oshiqmoqda. Shu jumladan, internet orqali turli elektron kitoblarni o'qish ham mumkin. Bu esa internetdan to'g'ri foydalanish demakdir.

Endi esa bugungi kun yoshlariga nazar solaylik. Ularning ko'p qismi ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketmoqda. Xo'sh, bunga kim aybdor? Albatta, eng avvalo o'zlari, qolaversa, ota-onasi. Chunki, ko'pgina yoshlar ota-onasi nazoratisiz qolganligi bois internet gadosiga aylanmoqda. Bu esa nafaqat u yoshning o'ziga, balki jamiyatga ham katta zarardir. Chunki, bugun yoshlar kitob o'qishmasa, internet shaydosi bo'lishsa, ertaga jamiyatda kitob o'qilmaydi, ma'naviyati pasaymadi, ertasi botqoqlikka botadi.

Shunday ekan, aziz yoshlar xulosa qilaylik. Internetdan unumli foydalangan holda yurtimiz kelajagi uchun o'z hissamiz qo'shaylik. Zero, yurtimiz kelajagining oltin kaliti biz yoshlarning qo'lidadir.

#### **FOYDALANILGAN SAYTLAR:**

1. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
2. [texnoman.uz](http://texnoman.uz)
3. [fayllar.org](http://fayllar.org)